


ISSN 2181-4791

**IMOM BUXORIY XALQARO  
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**IMAM BUKHARI INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC RESEARCH CENTER**



**№4  
2022**



# **IMOM BUXORIY SABOQLARI**

*Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-  
adabiy jurnal*

*Spiritual and educational,  
scientific-literary journal*



**2023-YIL –**

**INSONGA E'TIBOR VA  
SIFATLI TA'LIM YILI**



## Ушбу сонда:

**Шовосил ЗИЁДОВ.** Маърифат ўрнини жаҳолат эгаллашига йўл қўймаймиз!.....3

### АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

**Абдулҳаким ШАРЪИЙ ЖУЗЖОНИЙ, Нигора ЮСУПОВА.** Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор.....4

**Турсинбой СУЛТОНОВ.** Имом Бухорий асарларида илм эгаллаш ва комил инсон тушунчаларининг янги талқини.....5

**Lazizbek ХАЙТОВ.** Hakim Termiziyning “Al-hajju va asroruhu” (Haj va uning sirlari) asarida Haj va uning turlari haqida.....8

**Отабек МАҲМУДОВ.** Шарқ алломалари асарларининг Европада таржима қилинган илк санасини қайта белгилаш тўғрисида (лотин тилли манбалар таҳлили асосида).....10

**Мумин Мирзо АБДУПАТТАЕВ.** Шаҳристониининг “Мафотиҳ ал-асрор” тафсири ва унда динлар таълимотлари ва ақидаларининг ёритилиши.....12

**Ҳошимжон НИЗОМИДДИНОВ.** Анвар шоҳ Кашмирий – фазилатли аллома.....14

**Бобурмирзо БОТИРОВ.** “Ҳидоя” асарида инсон ҳуқуқларини ёритилиши.....16

**Расулбек РАҲИМОВ.** XVI–XVII асрларда Европа ноширлик уйларида «Ал-қонун фит-тиб» асарининг нашр қилиниши (Жунти ноширлик уйи мисолида).....18

**Самандар ҚҶЧҚОРОВ.** Абу Райҳон Берунийнинг маънавий меросида қадриятлари талқини (“Осорул боқия” асари мисолида).....19

**Дилфуза АБДУЛЛАЕВА.** Бухорода маданий мерос аъналарини тиклаган меъмор.....21

### НОДИР МАНБАЛАР

**Жамолиддин ЖҶРАЕВ.** “Гулшанул асрор”нинг қўлёзма нусхаларига ишланган миниатюралар бадиий манба сифатида.....23

**Азиза АБДУМАННОТОВА.** Туризмнинг илмий, тарихий, диний, адабий манбалардаги талқини.....26

### ВАТАНИМИЗ ТАРИХИ

**Гулдона ТАНИЕВА.** Ўрта Осиё хонликлари халқаро алоқаларида Ҳаж йўлларида оид масалалар.....28

**Абдурасул БОЛТАЕВ.** Ўзбекистонда турғунлик йилларида экологик қабоҳат.....29

**Саидакбар МУХАММАДАМИНОВ.** Хонликлар даврида Жўнглarning тузилиши ва таркиби ҳақида.....32

**Gulnoza АХМАДЖОНОВА.** Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik faoliyati.....34

**Хосият МУЛЛАДЖАНОВА.** Роль Туркестанского отдела русско-географического общества в истории экотуризма Средней Азии.....35

**Dilmurod МАМАРАСУЛОВ.** Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi so'nggi talabalarining taqdiri xususida.....36

**Nodirjon XUSHVAQTOV.** Xitoy tarixshunosligida Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rganilishining qiyosiy tahlili.....39

**Алишер ЯРКУЛОВ.** Жаҳонда археология тадқиқотларининг бошланиши.....42

**Анвар УМАРОВ.** Туркман халқи турмуш тарзида қадимги диний қарашларнинг айрим кўринишлари.....44

**Зокир ТОҶАЕВ.** XIX аср охири XX аср бошларида Туркистондаги илмий ва диний ташкилотлар тарихидан.....45

**Бунёд ЯЛГАШЕВ.** Самарқанд бадиий кулолчилик мактаби аъналарини.....46

**Зебинисо АҲМАДОВА.** Абдурауф Фитратнинг ислохотчилик қарашлари (“Мунозара” ва “Ҳинд сайёҳи қиссаси” асосида).....49

### ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

**Гулчеҳра НАВРҶЗОВА.** Бухорои шарифнинг етти пири ҳалол тушунчаси хусусида.....51

**Отабек МУҲАММАДИЕВ.** “Лубоб ал-калом” асарининг бугунги кундаги аҳамияти.....53

**Қобилжон ЗОҲИДОВ.** Илк араб-муслмон давлатида шаҳарсозликнинг ривожланиши.....57

**Ҳабибулло САҒДИЕВ.** Искреннее отношение к правителю в исламе.....59

**Машҳура РАШИДОВА.** Ислом маърифат дини.....61

**Shuxrat ОТАҚУЛОВ.** Gender tenglik siyosatiga ijtimoiy va diniy munosabat.....63

**Ҳусниддин МАМАДАЛИЕВ.** IX аср ва XIII асрнинг бошларидаги Турон шаҳарсозлигида ҳисба меъёрларининг ўрни.....65

**Аҳмадхон АЛИМОВ.** Тафсир илми ва унинг турлари.....67

**Азиза ТҶРАЕВА.** Диний бағрикенглик – барқарорлик омили.....70

**Ислом ҚАРШИЕВ.** Хожамназар Ҳувайдо маънавий меросида тасаввуфий ғоялар.....71

**Анорабону ХУДОЙБЕРДИЕВА.** Ислом таълимотида ижтимоий ҳамкорлик ғоялари.....73

**75.** دزورفأسلان بن بيسلطان. الإمام شهاب الدين القليوبي وأثره فيالتراث الإسلامي.....75

**Аҳмед АБДУРАХМАНОВ.** Аспекти семейных отношений в Исламе.....77

**Абдулбосит МАМАДАЛИЕВ.** Булғорий Бухорий (Хожа Ҳасан) аслида ким эди?.....79

**Ибрагимгаджи ХАЛАТОВ.** Закят как способ преодоления бедности в мусульманском общест.....80



<b>Абдурахим БОЛТАЕВ.</b> Ибн Арабийнинг ҳаёти ва тасаввуф таълимотида тутган ўрни.....	83
<b>Давлатжон МАМАТКУЛОВ.</b> Ўрта асрларда мафқуравий жараёнлар: муътазиллийлик, мутакаллимлик ва тасаввуф.....	85

### ИЖТИМОЙ ИНСТИТУТ

<b>Xurshida YUNUSOVA, Fotima JUMANAZAROVA.</b> O'zbekistonda xotin-qizlar bandligini ta'minlash: muammo va yechimlar.....	88
<b>Ўқтам ШАКАРОВ.</b> Раҳбар ахлоқий сифатларини шакллантиришнинг назарий ва методологик асослари.....	90
<b>Абдурахмон АБДУХАЛИМОВ.</b> Водий вилоятлари қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлаш масалалари.....	93
<b>Малика ШЕРМАТОВА.</b> Социальные проблемы в исламских государствах и пути их решения.....	95
<b>Шухрат САИДАҲМАДОВ.</b> Янги Ўзбекистоннинг ижтимоий-маънавий ҳаёти ва инсон шахси камолотида ҳадисларнинг ўрни.....	97

### ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

<b>Комил ҲАЙДАРОВ.</b> Маънавият ва тарбия соҳаларининг диалектик алоқадорлиги.....	100
<b>Эркин ЗОЙИРОВ.</b> Яъқуби Чархий асарларида онтологик масалалар: қиёсий таҳлил.....	102
<b>Гулчехра ТУЛЕМЕТОВА.</b> Некоторые аспекты влияния господствующей религиозной концепции на выбор метода исследования религии.....	104
<b>Маҳмутали ДЕҲҚОНОВ.</b> Жамият тараққиётида оила ва никоҳ муносабатларининг фикҳий асослари.....	106
<b>Ҳурият ХУДАЙБЕРДИЕВА.</b> Ислом динида ватанпарварлик ғоялари ривожланишининг ижтимоий-фалсафий моҳияти.....	108
<b>Пўлат ҚАҲҲОРОВ.</b> Инсон манфаатининг аксеологик хусусиятлари.....	110
<b>Сайёра САИДОВА.</b> Европа мамлакатлари тажрибасида давлат-конфессиявий муносабатларининг қиёсий таҳлили.....	112
<b>Гулнора ХУДОЙБЕРГАНОВА.</b> Исломда аскетик қарашларнинг тизимлашуви ва ривожланишига оид ёндашувлар таҳлили.....	116
<b>Йўлдош ИСОМИДДИНОВ.</b> Абдурауф Фитрат маънавий меросининг ижтимоий фалсафий моҳияти.....	118
<b>Aziz SHADMONOV.</b> Erkinlikning tarixiy-falsafiy asoslari.....	120
<b>Maftuna OCHILOVA.</b> Alisher Navoiyning falsafiy dunyoqarashi shakllanishining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy omillari.....	122
<b>Абдулло ҒУЛОМОВ.</b> Маҳмуд Ломишийнинг “Тамҳид” асарида субстанция ва акциденция борасидаги қарашлар таҳлили.....	123
<b>Zufarbek BEKCHANOV.</b> Iroda va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati.....	125
<b>Фарида КУЧИМОВА.</b> Проектив тафаккурнинг асосий хусусиятлари ва ривожланиш босқичлари.....	126
<b>Ғайрат АБДИЕВ.</b> Ёшларнинг сиёсий онгини фаоллаштиришда миллий давлатчиликнинг фалсафий масалалари.....	128
<b>Мирзо ИХТИЁРОВ.</b> Тележурналистика соҳасида соғлом рақобат тушунчасининг фалсафий моҳияти.....	130

### ЁШЛАР – КЕЛАЖАГИМИЗ

<b>Нигора ЮСУПОВА.</b> Ёшлар орасида радикализмнинг олдини олишда жаҳолатга қарши маърифат билан кураш аҳамияти (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасига муносабат).....	132
<b>Нодира СУЛТОНОВА.</b> Ота-онанинг меҳр-муҳаббати фарзандлар учун ибратдир.....	133
<b>Фарҳод НАЗАРОВ.</b> Ёшларнинг маънавиятига қаратилган таҳдидларга қарши мафқуравий иммунитетни шакллантириш технологиялари.....	135

### МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

<b>Нигора БУРАНОВА.</b> Интернетдан тўғри фойдаланиш давр талаби.....	137
<b>Юнус ХОЛИҚОВ.</b> Миллатлараро бағрикенгликни ривожлантиришда маданиятлараро ахлоқнинг ўрни.....	138
<b>Ёсин ОРТИҚОВ.</b> Ўзбекистон дунганлари маданиятидаги замонавий ўзгаришлар.....	140
<b>Ahrorbek ABDUG'ANIYEV.</b> O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davr boshqaruv va ma'naviy hayotida ayol kishining tutgan o'rnini va ahamiyati.....	142
<b>Шоҳсанам НИЯЗОВА.</b> Эътиқод ва интернетга қарамлик ўртасидаги боғлиқликка оид илмий назариялар.....	143
<b>Asilbek QOLQANATOV, Gulmira BEKTURSINOVA.</b> Madaniyat va san'at sohasida kreativ pedagogikadan foydalanishning ahamiyati.....	145
<b>Iltom FAYZULLAYEV.</b> O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini o'rganish va uni takomillashtirish.....	147

### БИР ҲАДИС ШАРҲИ

Ота-она сўрамасдан фарзандининг мулкидан “ўғринча” фойдаланишга ҳаққи борми?.....	149
---	-----

### ЯНГИ НАШР

Муснади Кеший (1-3 жилдлар).....	150
----------------------------------	-----



#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Бағрикенглик тамойиллари Декларацияси // ЮНЕСКО Халқаро меъёрий ҳужжатлари. – Т.: “Адолат”, 2004.-92-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-28-29-бетлар.
3. Олтин силсила: 1-жилд: Саҳиҳул Бухорий.-Тошкент: “Hilol-nashr”, 2019.-3-4-бетлар.
4. Саҳиҳи Бухорий (Ал-жомий ас саҳиҳ) Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2009.-24-б.
5. Саҳиҳи Бухорий (Ал-жомий ас саҳиҳ) Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2009.-12-б.
6. Имом ал-Бухорий. Саҳиҳул Бухорий-1. “Hilol-nashr”, 2012.-179 бетлар.
7. мом ал-Бухорий. Саҳиҳул Бухорий-1. “Hilol-nashr”, 2012.-133 бетлар.
8. Имом ал-Бухорий. Саҳиҳул Бухорий-1. “Hilol-nashr”, 2012.-54 бетлар.
9. Имом ал-Бухорий. Саҳиҳул Бухорий-1. “Hilol-nashr”, 2012.-142 бетлар.
10. Маърифат – тинчлик асоси.-Т.: Тошкент ислом университети нашриётматбаа бирлашмаси, 2009.-56-б.
11. Минг бир ҳадис. – Т.: Моварауннаҳр нашриёти, 1998.-69-б.
12. Имом ал-Бухорий, Ал-адаб ал-Муфрад.-Т.: Ўзбекитсон, 1980.-46-б.
13. Олтин силсила: 1-жилд: Саҳиҳул Бухорий.-“Hilol-nashr”, 2019.-179.
14. Муслмоннинг дин китоби.-Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2018.-4-б.
15. Жалолиддин Румий, Най ноласи.-Т.: Юрист-медиа маркази, 2014.-11-б.
16. Жўраҳон Саййид Авлиёхон. Моварауннаҳр саййидлари.-Т.: 1994.-7.
17. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2022.-230-б.

♦ **Аннотация:** Ушбу мақолада Имом Бухорий ҳадисларидаги илму маърифат ғоялари муҳокама қилинади. Шунингдек, дунёвий ва диний билимлар ўртасидаги ўзаро алоқаларнинг ривожланиши таҳлил этилади. Имом Бухорийнинг ҳаёт йўли ва у тўплаган ҳадислардаги илм, маърифат ва диндаги айрим ўзгаришлар бугунги шароит билан боғлиқ ҳолда анализ қилинади. **Таянч сўзлар:** Имом Бухорий, ислом дини, ҳадис, илм, маърифат, билим, ишонч.

♦ **Annotation:** This article discusses the relationship between science, eliefs tolerance in Islam in the Hadiths' of the great Hadith scholar Imam Bukhari, while there is increasing tension between secular and religious sciences in the world today. In particular, al-Buhari's way of life, and the hadiths he has collected reflects on the analysis of faith, science, enlightenment, religious tolerance and change of religion. It also focuses on reforms in Uzbekistan on freedom of religion tolerance, Islam and religious education. **Key words:** Imam Bukhari hadith, religious tolerace, faith knowledge, beliefs.

♦ **Аннотация:** Данная статья обсуждает отношения между убеждениями наукой и терпимость в хадисах Имама Бухари, в то время имеют диалектическая отношение между светской и религиозной следовательно. Жизненный путь Имама Бухари и хадисы который он собрал отражен анализы науки просветления, религиозной терпимости и изменений в религии. **Ключевые слова:** Имам Бухари, ислам, хадис, религиозная терпимость, справедливость, знания, убеждения.

## HAKIM TERMIZIYNING “AL-HAJJU VA ASRORUHU” (HAJ VA UNING SIRLARI) ASARIDA HAJ VA UNING TURLARI HAQIDA

**LAZIZBEK XAITOV**  
BuxDU, falsafa fanlari  
doktori (PhD)

**M**amlakatimizda xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimizning ilmiy va ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha chuqur islohotlar izchil davom etmoqda. “Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O'zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko'tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz”[1]. Bu borada, islom dinining insonparvarlik mohiyati targ'ibotida ulkan hissa qo'shgan alloma Hakim Termiziyning g'oyalari asosida shakllangan falsafiy-irfoniy ta'limoti, inson kamolotiga oid konstruktiv ahamiyatga ega pozitiv g'oyalarni ilmiy nazariy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir al-Hakim at Termiziy (820-932) islom tarixida sermahsul faoliyat ko'rsatgan olimlardan biridir. Alloma tafsir, hadis, fiqh, kalom, tasavvuf, islom falsafasi kabi sohalarda samarali ijod qilgan. Undan bizgacha oltmishdan ortiq asarlar yetib kelgan.

Mutafakkir islom dinining beshta asosiy ruknlaridan biri haj mavzusiga bag'ishlangan “Haj va uning sirlari” kitobini aniq dalillarga asoslanib yozgan. Hakim Termiziyning boy hayotiy va ilmiy tajribasi bu asarning muvaffaqiyatini ta'minlagan.

“Haj va uning sirlari” asari yetti bobdan iborat. MutafakkirasarniKa'baning (asarda Qadim uy deb atalgan) bunyod etilishi, Ibrohim alayhissalomning unga poydevor qo'yishlari tarixining bayoni bilan boshlagan. So'ngra bu ibodatni ado etish uchun lozim bo'lgan amallar va ularning sharhi o'rin olgan. Asarda bu ibodat nima uchun islom haji deb nomlanishi, kimlarga bu ibodatni ado etish buyurilgani masalasi tushuntirilgan. Haj bilan umra ibodatidagi farqlar, ularni ado etish yo'llari va hikmatli xususida tahlil fikrlar bildirilgan. Haj ibodatining har bir talabini ado etishda xoji bajarishi lozim bo'lgan amallar, xojilarning darajalari, haj ibodati nima bilan va qanday boshlanib qaysi amal bilan yakunlanishi masalalari ham “Haj va uning sirlari” asarida o'z aksini topgan.

Hakim Termiziyning “Haj va uning sirlari” [2:89] asarining

oltinchi bobi haj va uning turlari masalasiga bag'ishlangan. Unda manosiklarning haj va umraga bo'linishi; umranning sifati, vaqti va hukmi; hajning farzi va uning hukmlari; ifrod, qiron va tamattuning sifati, ehromning miyqotlari qayerdan boshlanishi masalalari o'z aksini topgan.

“Haj va uning sirlari” asarining ikkinchi bobi manosikning sharhiga bag'ishlangan [2:44-45]. Hakim Termiziyning fikricha, manosik haj so'zidan keng qamrovliroq bo'lib, haj, umra va boshqa ibodat amallarini ham qamrab oladi. Allomauni “hajga oid ibodatlar”, “inson tana a'zolari bilan bajariladigan ish” yoki “qalb xotirjam bo'ladigan va tinchlanadigan joy” degan ma'nolarni bildirishini ta'kidlagan. Mutasavvif manosik so'zi bilan birgalikda ba'zan “mashoir” va “mashohid” so'zlari qo'llanilganini izohlagan.

Arab tilida “manosik” Alloh taolaga yaqin bo'lishga sabab bo'ladigan barcha amallarga nisbatan ishlatiladi. Haj surasining oltmish yettinchi oyatida: “Biz har bir ummatga qurbonlik qilish (amalini) buyurganmiz – ular unga amal qiluvchidirlar...”[4:340] Shuningdek, ko'p ibodat qiluvchi xudojo'y kishiga nisbatan “falonchi nosik” yoki falonchi mutanassik” deb aytishadi. Bu so'z shariatda Alloh taoloni va Uning Uyini ulug'lashga xos ibodat ma'nosini beradi. Kishi ibodat qilish uchun Uyni niyat qilib yo'lga otlansa, Uyga tegishli bo'lgan bajarilishi lozim ibodat



tushuniladi. Umumiy qilib aytganda, ibodatning ana shu turi va uni bajarishga manosik deb aytiladi.

Hakim Termiziyning fikricha, Manosik ikki turga bo'linadi: umra va haj. Umra so'zining lug'aviy ma'nosi "ziyarat"dir [2:89]. Islom shariatida Baytullohning maxsus ziyoratiga "Umra" deyilgan. Xanafi mazhabi ulamolari umri davomida bir marta umra qilishni sunnati muakkada degan.

Haj so'zining lug'aviy ma'nosi "qayta-qayta niyat qilish", qasd qilish [5:272].

Hakim Termiziy "Haj va uning sirlari" asarida umranning sifati, vaqti va hukmini quyidagicha tasniflagan.

1. "Labbayka Alloxumma, labbayka" yoki umraga kirishish durust bo'ladigan boshqa lafzlar bilan ehromga kirish;

2. Tavof qilish (Kabai muazzamani. Izoh X.L.);

3. Sa'y qilish [3:12] (arabcha urinish, yugurish; Safo va Marva tepaliklari orasida maxsus tarzda yetti marta yurish. Izoh X.L.);

4. Soch oldirish.

Umra qiluvchi kishi soch oldirish bilan umrani ado etgan bo'lib, uning zimmasida hech narsa qolmaydi.

Yilning besh kundan boshqa barcha kunlarda umra qilish joiz. Mana shu besh kunda faqat umranning o'zini bajarsa, makruh bo'ladi (chunki, bu besh kun haj uchun ajratilgan kunlardir). Bu besh kun arafa, qurbonlik va undan keyingi uch tashriq kunidir. Umra amali kishiga faqat o'ziga nazr qilish sharti bilangina vojib bo'ladi.

Hakim Termiziy "Haj va uning sirlari" asarida hajning farzi va uning hukmlari, ifrod, qiron va tamattu', ehromning miyqotlari haqida ma'lumot bergan.

Muallifhajning farzi va uning hukmlari to'g'risida fikr yuritar ekan shariatda haj ibodati uch turdagi amallarni qamrab olishi haqida fikr bildirgan.

Birinchi tur amallar farz amallar bo'lib, ular ham o'z navbatida quyidagi uch qismga bo'linadi:

1. Exrom. Uning bo'lmasligi hajga kirishni man qiladi.

2. Arofat tog'ida turish. Uning bajarilmasligi hajning buzilishiga sabab bo'ladi. Bu qismdagi farz Arofat tog'ida turishdan oldin ayol kishiga yaqinlashishni ham man qiladi.

3. Ziyorat (ifoza) tavofi. Unit tark qilish hojini exromdan chiqarmaydi.

Ikkinchi tur amallar haj qiluvchi kishi tark qilishi mumkin bo'lmagan vojib amallar bo'lib, Safo va Marva orasida sa'y qilish, Muzdalifada turish, soch oldirish, (shaytonga) tosh otish, sadr (jo'nash) tavofini [Sadr tavofi (arabchada jo'nash tavofi) yurtga qaytishdan oldin Kabai muazzama bilan vidolashish uchun qilinadi. Bu tavofni "Tavofulvido" deb ham ataladi] qilish, tavof qilayotganda tahoratli bo'lish, ehrom bog'lashda miyqot (uchrashuv joyi; haj yoki umra uchun ehrom bog'lanadigan joy) larga rioya qilish va jimo qilish, xushbo'y narsa surtish va ov qilishdan saqlanish shular jumlasiga kiradi.

Uchinchi tur amallar mustahab amallar bo'lib, salomlashish tavofi, toshni o'pish, tavof qilayotganda tez-tez yurish, Batnu Masilda (Safo va Marva o'rtasida yashil chiroq bilan ajratilgan joyda) tez yurish shular jumlasiga kiradi.

Asarda mutafakkir ifrod, qiron va tamattu'ning sifatlari haqida to'xtalgan [2:92]. Haj qilish niyatida ehrom bog'laganlar uch xil holatda bo'lishini ta'kidlaydi:

1. Ifrod qiluvchi.

2. Qiron qiluvchi.

3. Tamattu' qiluvchi.

Ifrod qiluvchi kishi bir ehrom bilan bir safarda yoki ikki safarda haj amallarini bajaradi. U shu yili haj oylarida yoki hajning tavofini qilishdan oldin umra qilmaydi.

Qiron qiluvchi kishi bir ehrom bilan bir yoki ikki safarda haj va umranning amallarini bajaradi.

Tamattu' qiluvchi kishi esa haj oylarida bir safar davomida ikki ehrom bilan haj va umra amallarini bajaradi. Bunda u o'zining imkoniyatlariga qaraydi. Agar jonliqni o'zi bilan olib kelmagan bo'lsa, u umrasining ehromida bo'ladi.

Ifrod hajning hukmiga kelsak, bu hajni barcha musulmonlar bajarishi, ayniqsa, Makka ahli va miyqot ahli deb hukm qilinadigan kishilarning ado etishi mubohdir.

Tamattu' va qiron hajiga kelsak, Masjidulharomda turadigan kishilar, ya'ni Makka va ularga yaqin bo'lgan miyqot ahli bu ikki turdagi hajni ado etishdan qaytarilgan. Masjidulharomda yashamaydigan kishilarga esa bu ikki hajni bajarishi muboh qilingan.

Asarda mutafakkir ehromning miyqotlari qayerdan boshlanadi degan savolni qo'yadi va unga quyidagicha javob beradi. Miyqotlar besh joydir.

1. Haj qiladigan kishi iroqlik bo'lsa, uning miyqoti Zotu Irq. [Zotu Irq - (Iroq ahlining miyqoti bo'lib, Makkadan ikki marhala (Xanafi mazhabiga ko'ra bir marhala 29,5 km ga teng) uzoqlikda joylashgan. Bu joy Najd va Tixoma ahli o'rtasidagi chegaradir].

2. Madinalik bo'lsa, uning miyqoti Zul xulayfa. [Zul xulayfa - Madina ahlining miyqoti bo'lib, Madinadan olti mil uzoqlikda joylashgan. Hozir bu yer "Obori Ali" deb ham ataladi].

3. Shomlik bo'lsa, uning miyqoti Juxfa. [Juxfa - Shom, Misr va Mag'rib ahlining miyqoti bo'lib, Madinaning yo'lida, undan yetti marhala uzoqlikda joylashgan. Juxfa deb nomlanishiga sabab, sel u yerni yuvib, odamlarni oqizib ketgan. Bu joy Makkadan uch marhala uzoqlikda joylashgan].

4. Najdlik bo'lsa, uning miyqoti Qarn. [Qarn - Najd ahlining miyqoti. Bu joy "Qarnul manozil" va "Qarnus sa'olib" deb ham aytiladi. "Qarn" so'zining ma'nosi - "kichik tog'"].

5. Yamanlik bo'lsa, uning miyqoti Yalamlam hisoblanadi. [Yalamlam - Yaman ahlining miyqoti bo'lib, Makkadan ikki marhala uzoqlikda joylashgan. Ba'zilar uni Tixomadagi tog' degan].

Hakim Termiziy bu miyqotlarni yuqoridagi qavmlar uchun belgilagan miyqotlar belgilanishining foydasi ehromga kirishga kechikmaslik uchunligini aytib o'tgan. Ehrom bog'lashning farzligi bu muqaddas zaminni ulug'lash uchundir.

Ehromni miyqotdan oldin bog'lash afzal. Agar miyqotdan o'tib ehrom bog'lasa, bir jonliq so'yish vojib bo'ladi.

Hakim Termiziy "Haj va uning sirlari" asarida haj ibodatining zohiriy va botiniy mazmun-mohiyati haqida fikr yuritar ekan, u insonning Alloh oldida bandaligini namoyon qilish va o'z nafsini uning ixtiyoriga butunlay taslim qilishni ko'rsatishdan iborat ekanini xulosa qilgan.

Hakim Termiziyning "Haj va uning sirlari" asari o'z davrida va bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Yurtimizdan borgan ziyoratchilar Madina ahli kabi Zul-Xulayfada ehrom bog'laydi. Miyqotda - Zul-Xulayfada ikki rakat namoz o'qib, niyat qilib, talbiya aytadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: "O'zbekiston", 2021.

2. Ал-Ҳаким Ат-Термизий. Ҳаж ва унинг сирлари. Таржимон. Ж. Ҳамроқулов. –Тошкент: Могаоуннаһр, 2015.

3. Умра қўлланмаси (Матн) / Ж. Нуриддинов. – Тошкент:

Ўзбекистон халқаро ислом академияси. Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018.

4. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / А. Мансур тарж. – Т.: ТИУ, 2004.

5. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ақоид илми ва унга боғлиқ масалалар. –Тошкент: Hilol-nashr, 2021.

♦ **Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk vatandoshimiz Hakim Termiziyning ilmiy merosidagi "Al-Hajju va asroruhu" (Haj va uning sirlari) asaridagi haj ibodatini ado etish uchun lozim bo'lgan amallar va ularning sharhi tahlil qilingan. **Tayanch so'zlar:** Hakim Termiziy, "Al-Hajju va asroruhu", haj, umra, manosik, ehrom, miyqot, ifrod, qiron, tamattu.

♦ **Annotation:** This article analyzes the actions required to perform the Hajj prayer and their commentary in the work "Al-Hajju va asroruhu" (Hajj and its secrets) in the scientific heritage of our great compatriot Hakim Termizi. **Key words:** Hakim Termidhi, "Al-Hajju va asroruhu", hajj, umrah, manosik, ihram, miyqat, ifrad, qiran, tamattu.

♦ **Аннотация:** В данной статье анализируются действия, необходимые для совершения хадж-намаза и их комментарий в труде "Аль-Хаджу ва асроруху" ("Хадж и его тайны") в научном наследии нашего великого соотечественника Хакима Термизи. **Ключевые слова:** Хаким Термизи, "Аль-Хаджу ва асроруху", хадж, умра, маносик, ихрам, микат, ифрад, қиран, таматту.